

URBANIZATSIYANING IJTIMOIY-GIGIYENIK MUAMMOLARI

Rayimzoda Olimjon Odiljon o‘g‘li

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 2-kurs magistri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mualliflar tomonidan, O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona viloyatida urbanizatsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, aholining demografik ko‘rsatgichlari, shahar va qishloq aholisining o‘sish sur’atlari hamda ularning urbanizatsiya jarayonini vujudga kelishidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: urbanizatsiya, demografiya, statistika, shahar, qishloq, gigiena, o‘sish sur’ati.

SOCIO-HYGIENIC PROBLEMS OF URBANIZATION

Abstract: this article reflects by the authors on the specifics of the urbanization process in Uzbekistan, in particular in the Fergana region, demographic indicators of the population, growth rates of urban and rural populations and their importance in the emergence of the urbanization process.

Keywords: urbanization, demography, statistics, urban, rural, hygiene, growth rate.

KIRISH

Ma’lumki keyingi paytlarda dunyo bo‘ylab demografik muammolar geografik progressiya bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda quruqlikning 3%ida shaharlar joylashgan bo‘lsa, dunyo aholisining 55%dan ortig‘i shaharlarda yashaydi.

Urbanizatsiya so‘zi shaharlashish yoki shaharlik ma’nosini bildiradi. Urbanizatsiyada shaharlarning o‘sishi yoki kengayishi, unda sanoatning rivojlanishi natijasida turli vazifalarni bajaruvchi ma’naviy va madaniy turmush sharoitining kengayib borishi natijasida ishlovchilar soni ko‘payadi [2,5,7,10].

Urbanizatsiyada shaharlarga yon-atroflardan hamda qishloqlardan ishchi kuchining kelib qo‘silishi tushuniladi. XX-asrda birinchi marta dunyoda shahar aholisi soni, qishloq aholisi sonidan oshib ketdi. Bugungi kunda aholi soni 20 mln. dan oshgan yirik shaharlar soni dunyoda yil sayin oshib bormoqda [1,3,4].

To‘g‘ri shaharlarning ko‘payishining o‘ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Katta shaharlarda atmosfera havosi turli zaharli gazlar bilan ifloslangan bo‘ladi, atmosferaga tashlanadigan zaharli gazlar me’yori ruxsat etilgan me’yordan oshib ketganligi ko‘pchilikka ma’lum. Aholi soni 20 milliondan oshgan shaharlarga

SHanxay, Tokio, Qohira kabi shaharlar kiradi va bu shaharlarda atmosfera havosi eng ifloslangan holatdaligi kuzatilmoqda [6,8,9].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot Farg‘ona viloyat statistika boshqarmasi bergen ma’lumotlari, viloyatning doimiy aholisi soni, hamda adabiyotlar tahlili hamda statistik usullardan foydalangan holda olib borildi.

Viloyat statistika boshqarmasi bergen ma’lumotiga ko‘ra, 2021 yil 1 yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 3 mln 819,9 ming kishini tashkil etmoqda. SHundan, shahar aholisi soni – 2 mln 152 ming kishi, qishloq aholisi soni esa – 1 mln 667,9 ming kishini tashkil etgan.

NATIJALAR

O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ijtimoiy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda demografik omillarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Aholi ko‘payishi bilan bir yo‘la uning zichligi ham oshmoqda: 1940 yilda har kv.km ga 14,6 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1991 yilda 46,3 kishi, 2010 yilda 64,9 kishi, 2016 yilda bu ko‘rsatkich 71,5 kishini tashkil etgan (1940 yilga nisbatan 4,9 baravar oshgan).

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonning 14 ta hududiy bo‘linmasidan 10 tasi, shu jumladan, Toshkent shahri aholi zich bo‘lgan hududiy bo‘linmalar jumlasiga kiradi, vaholanki, ular O‘zbekiston hududining atigi choragini, aholi uncha zich bo‘lmagan to‘rtta viloyat esa respublika hududining qolgan to‘rtdan uch qismini egallagan. 2017 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, aholining eng zich joylashgan hududlari sifatida 1 kv.km ga to‘g‘ri keladigan aholi soni Andijon (689,0 kishi), Farg‘ona (527,3 kishi), Namangan (356,5), Xorazm (293,7 kishi), Samarqand (217,8 kishi) viloyatlari va Toshkent shahri (7257,9) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aholi nihoyatda zich bo‘lgan mintaqalarga aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholi, tug‘ilgan bolalar va aholi tabiiy ko‘payishining beshdan to‘rt qismi, yalpi ichki mahsulotning 74,0 %i, investitsiyalarning 79,0 %i va iste’mol xarajatlarining 88,0 %i to‘g‘ri kelmoqda.


Respublikadagi barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida demografik vaziyat turadi. CHunki, O‘zbekistonda aholining o‘sish sur’atlari yuqori hisoblanadi. So‘nggi yillarda aholining tabiiy o‘sishi birmuncha kamaygan bo‘lishiga qaramay, u hali ham ayrim mamlakatlar orasida eng yuqori darajadadir. Masalan, tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamiz mustaqilligining so‘nggi 20 yili mobaynida (1991-2011 yillar) O‘zbekiston aholisi eng yuqori, ya’ni 8,9 mln. kishiga oshgan holda, bu ko‘rsatkich qo‘shni davlatlarda, xususan, Tojikistonda 2,2 mln. kishi, Turkmanistonda 1,2 mln. kishi, Qirg‘izistonda

1,0 mln. kishi, Qozog‘istonda 0,8 mln. kishi hamda Ozarbayjonda 1,9 mln. kishiga oshgan. Qolgan MDH davlatlari – Ukraina, Rossiya, Moldova, Belorussiya va Armanistonda teskari holat kuzatilgan, ya’ni muvofiq ravishda 6,0; 5,4; 0,8; 0,7; 0,3 mln. kishiga aholi sonining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Bugungi kunda mamlakat aholisi Markaziy Osiyo davlatlarida yashayotgan jami aholining 46,0 %idan ortig‘ini tashkil etmoqda. Mamlakatda aholining tabiiy o‘sishi 2000-2010 yillarda mustaqillikning dastlabki yillari va 1995 yilga nisbatan ancha pasaygan bo‘lsada (2000 yil 1995 yilga nisbatan 73,6 %, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 93,2 %), aholining yillar mobaynida progressiv ko‘payishi natijasida 2015-2016 yillarda aholining tabiiy o‘sishi 1995 yilga nisbatan mos ravishda 9,3 % va 7,3 %ga oshgan.

MUHOKAMA

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning 1 aprel holatiga respublikamizning doimiy aholisi soni 36 197 781 kishini tashkil etgan. SHahar va qishloqlarda yashovchilar ulushi 1 aprel holatiga doimiy aholi tarkibida shahar hududida yashovchilar soni qishloq hududida yashovchilar sonidan 721,7 ming nafarga ko‘p, ya’ni shahar aholisi soni – 18 459 763 kishi, qishloq aholisi soni esa – 17 738 018 kishini tashkil etadi. Ma’lumotlarda keltirilishicha, O‘zbekiston aholisi 2023 yilning har bir oyida o‘rtacha 57,6 ming kishiga oshgan. Joriy 2023 yilning har bir kunida doimiy aholi soni o‘rtacha 1,9 ming kishiga ko‘paymoqda. Mazkur 2023 yilning 1 yanvar holatiga doimiy aholi tarkibidagi erkaklar soni ayollar sonidan 232 210 nafarga ko‘p bo‘lgan. Mazkur davrda aholi soni 36 million 024 ming 946 kishini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasida 2023 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha 80,2 kishi to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ortgan (2022 yilda 1 kv.km.ga 78,6 kishi). Hududlar bo‘yicha tahlil etilganda, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 6 597,5 kishi, Andijon viloyatida 772,7 kishi, Farg‘ona viloyatida 588,2 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati 9,5 kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 11,9 kishini tashkil etgan (rasm).



Rasm. O'zbekistonda aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichlari

O'zbekistonning yirik shaharlarini rivojlantirish bo'yicha strategik platforma va strategiya yaratilmoqda, bu esa ularni aholi uchun rivojlangan infratuzilma, ta'lif, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya qilish salohiyatiga ega o'ziga xos tortishish markazlariga aylantirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, hududlardagi migratsiya mahalliy xarakterga ega bo'lishiga imkon beradi, shu bilan uni poytaxtga emas, balki har bir mintaqaning yirik shaharlariga yo'naltiradi.

XULOSA

Ma'lumki urbanizatsiya shakllangan hududlarda ekologik madaniyatni targ'ib qilishga katta e'tibor berilishi lozim, shahar aholisini chiqindilarni o'z joyiga olib borib tashlashga, tabiat hamma uchun birdek aziz ekanligini va inson faqatgina tabiatda yashashi mumkinlini ularga to'g'ri tushuntirib berish va shaharda insonlarning ekologik madaniyatini avvalo mактабдан, Oliy ta'lif muassalarida va yoki ular faoliyat olib boradigan ish joylar va uylarida olib borish, tabiatni asrash yo'lida jiddiy harakatlardan biri bo'ladi. Urbanizatsiya barcha xalqlar va davlatlarning kelajagida ularni kutib turgan jarayondir, bu holatni pasaytirish uchun odamlar yana Tabiatni istab, uning bag'riga qaytishlari lozim bo'ladi. Bilimli, salohiyatli ekologik tushuncha va madaniyatga ega insonlar shahar shov-shuvlaridan bezib bir kuni yana Tabiat sari yo'l olganida urbanizatsiya o'z-o'zidan susayaboshlaydi. Urbanizatsiya qanchalik kuchli bo'lmasin insonlar o'zi yashaydigan tabiatni sevishlari va uni asrab avaylashlari, o'zlarining sog'lom yashashlari yo'lidagi ishonchli qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Антонюк В. С., Погонин В. В. Теоретические основы процесса урбанизации и его влияния на региональный рынок жилья //Вестник Тюменского государственного университета. Социально-экономические и правовые исследования. – 2015. – Т. 1. – №. 2. – С. 144-151.
2. БОНИ Л. Д. Рынок земли и его роль в урбанизации Китая //Азия и Африка сегодня. – 2016. – №. 11. – С. 11-18.
3. Вартанова М. Л. Специфика урбанизации в России: ведущие факторы социального развития городской и сельской местности //Вестник Академии знаний. – 2021. – №. 4 (45). – С. 61-71.
4. Власов С. А. Изучение урбанизации на Дальнем Востоке России в контексте исторического образования //Культурно-историческое наследие России и стран Азиатско-Тихоокеанского региона: исследование и сохранение. – 2018. – С. 353-358.
5. Власов С. А. Урбанизация на Дальнем Востоке России в исторической ретроспективе //Историческая урбанистика: прошлое и настоящее города. – 2015. – С. 370.
6. Гарнага А. Ф., Дорофеева Н. Н., Дорофеев Е. П. Социальные предпосылки и перспективы современных процессов урбанизации //Социология. – 2020. – №. 5. – С. 254-256.
7. Гололобов Е. и др. Экологические факторы урбанизации севера Западной Сибири и их влияние на развитие городского хозяйства в середине 1960-х-1980-е гг //Вестник Томского государственного университета. История. – 2021. – №. 73. – С. 5-12.
8. Гукасян Г. Л. Урбанизация и пандемия COVID-2019 в городах мира: потеря преимуществ города или переосмысление городского развития? //Вестник Российской университета дружбы народов. Серия: Государственное и муниципальное управление. – 2021. – Т. 8. – №. 1. – С. 7-19.
9. Джумамбаев С. К. Урбанизация и индустриализация в Казахстане: взаимосвязь, состояние и перспективы //ҚазҰУ ХАБАРШЫСЫ. – 2014. – Т. 2. – С. 3.
10. Дзятко А. М., Покидько Л. П. УРБАНИЗАЦИЯ И ИНДУСТРИАЛИЗАЦИЯ КАК ДВИЖУЩАЯ СИЛА РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН //Современные проблемы земельно-имущественных отношений, урбанизации территории и формирования комфортной городской среды. – 2021. – С. 138-144.